



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO'MITASI

2026- yil "30" yanvar

QAROR 2 -son

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75-son qaroriga muvofiq, statistika kuzatuvlarini o'tkazish va ko'rsatkichlarni shakllantirish uslubiyotlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichlarini shakllantirish jarayonlarida yangi axborot manbalaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi **qaror qiladi**:

1. Iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 20-maydagi "Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida" 106-son buyrug'i;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 20-noyabrdagi 193-son buyrug'i;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 20-maydagi "Tovarlarning ulgurji savdo narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida" 105-son buyrug'i.

3. Mazkur qaror tasdiqlagan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Hamrayev